

YURT KELAJAGU BIZ YOSHLAR QO'LIMIZDA

Yo'ldashev Nurbek Jo'rabek o'g'il'i

Yangiarik education centrs Nodavlat ta'lif muassasi 11-sinf o'quvchisi

Annotatsiya: Mazkur tezizisda biz yoshlarga qaratilgan imkoniyatlar haqida yosh tadbirkorlarning qo'llab quvvatlanishi haqida ma'lumot beraman. Har bir inson tug'ililar ekan o'z yurtini ko'klara ko'tarishni va yurtga munosib farzand bo'lishni yurt g'urur va ixtixorini asrab avaylashni istaydi. Hozirgi kundan yurt bo'shimiz tashabuslari bilan biz yoshlarga juda ko'plab imkonyat eshiklari barrala ochib qo'yilgan yuragida o'ti shijoati bor yoshlarni albbata bu imkoniyatlardan boshlari ko'ka yetib biza yoshlarni o'ylab qayg'uradiga Shavkat Miromonovich Mirziyoyev dek yurt boshimiz borligigan biz yoshlarga yanada g'ayrat va kuch bag'ishlaydi.

Kalit so'zlari: yoshlar, tadbirkorlik, imkoniyat, horijiy tillar, vatan, raqamli texnalogiya, moddiy yordam, qo'llab quvvatlash.

Абстрактный: В этой диссертации мы предоставим информацию о возможностях для молодежи и поддержке молодых предпринимателей. При рождении каждый человек хочет поднять свою страну в небо и быть в детстве достойным страны, защищать гордость и честь страны. Отныне благодаря инициативам нашей страны перед молодежью широко открылись многие двери возможностей, и молодые люди, у которых есть огонь в сердцах, наверняка будут ошеломлены этими возможностями, и мы подумаем о молодежи», - говорит Шавкат Миромонович Мирзиёев, глава страны. Это придаст больше энергии и сил нам, молодым людям.

Ключевые слова: молодежь, предпринимательство, возможности, иностранные языки, родина, цифровые технологии, материальная помощь, поддержка.

Abstract: In this thesis, we will provide information about the opportunities for young people and the support of young entrepreneurs. At birth, every person wants to raise his country to the sky and to be a child worthy of the country, to protect the pride and honor of the country. From now on, with the initiatives of our country, many doors of opportunities have been opened wide for the youth, and the young people who have fire in their hearts will surely be overwhelmed by these opportunities, and we will think about the youth, says Shavkat Miromonovich Mirziyoyev, the head of the country. It will give more energy and strength to us young people.

Key words: youth, entrepreneurship, opportunity, foreign languages, homeland, digital technology, material assistance, support.

Hozirgi kunda yoshlarga ilim hattoki tarbirkorlik bo'yichayam ko'plab yordamlar berilmoqda.

Har qanday yoshlar oilaviy holatidan qaramasdan o'zi biznes qilsa bo'lada ta'lim olsa bo'ladi hattoki kam ta'minlangan oila farzandlarga ko'plab imtiyozlar ajratilgan.

Yoshlar daftari yana ko'plab ta'lim olish istaki bor yoshlar ko'plab imtiyozlar orqali oliy o'quv yurtlariga davlat grantlar ajratilmoqda.

2016-yilda qabul qilingan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunida yoshlarga oid daavlat siyosati yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo'nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun sharoitlar yaratishga xizmat qilishi alohida ta'kidlanib, amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar qonun bilan mustahkamlandi.

Mazkur qonunda belgilangan vazifalar ijrosi doirasida qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini tubdan isloh etish, yoshlar sohasidagi muammolarga samarali yechimlar ishlab chiqish, vakolatli organlar faoliyatini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirish maqsadida O'zbekiston yoshlar ittifoqi hamda Yoshlar ishlari agentligi tashkil etildi. Bundan tashqari, Oliy Majlis Senatida Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi, Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida Yoshlar masalalari bo'yicha komissiya, Oliy Majlis palatalari huzurida "Yoshlar parlamenti" tashkil qilindi. Shu bilan birga Innovations rivojlanish vazirligi qoshida Yoshlar akademiyasi tashkil etildi. Hududlarda "Loyihalar fabrikasi" ish boshladi.

Mazkur ishlar natijasida O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil topgandan buyon 841 147 nafar yoshning bandligi ta'minlandi. 2021-yilning birinchi yarmida Yoshlar ishlari agentligi tomonidan 78 140 nafar yosh ishga joylashtirilgan bo'lib, 5 684 nafar yoshga subsidiyalar ajratildi, ijtimoiy himoyaga muhtoj 127 nafar talabaning 350 million so'mlik to'lov shartnoma mablag'lari to'lab berildi.

Yoshlarni ish bilan ta'minlash, ularning tashabusini moliyalashtirish maqsadida 2018-yildan boshlab hududlarda 25 ta "Yosh tadbirkorlar" kovorking markazi va 157 ta "Yoshlar mehnat guzari" kompleksi faoliyat boshladi. "Yoshlar – kelajagimiz" davlat dasturi doirasida respublikaning

tuman va shaharlarida amalga oshiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbusni targ'ib qilish va ro'yobga chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur g'oyani amalga oshirish maqsadida O'zbekiston yoshlar ittifoqi qoshida "5 tashabbus loyiha ofisi" faoliyati yo'lga qo'yildi. Tegishli loyihalari, jumladan, "Sport karvoni", "Bir million dasturchi", "Eng yaxshi kitobxon oila" kabi loyihalari amalga oshirilmoqda.

Turli sohalarda samarali faoliyat yuritayotgan, yuqori natijalarga erishib, tengdoshlariga o'rnak bo'layotgan yigit-qizlarni rag'batlantirish maqsadida "Mard o'g'lon" davlat mukofoti va "Kelajak bunyodkori" medali ta'sis etildi. O'tgan vaqt davomida 113 nafar yosh "Mard o'g'lon" davlat mukofoti bilan, 75 nafari esa "Kelajak bunyodkori" medali bilan mukofotlandi.

Ta'lim-tarbiya sohasida ham so'nggi yillarda ulkan o'zgarishlar ro'y berdi. Tizim tubdan isloh qilindi. Mazkur sohada yoshlar manfaatlarini ko'zlab ko'plab o'zgarishlar amalga oshirildi.

Ta'lim tizimidagi davlat siyosati takomillashtirildi. Ta'lim sohasini tubdan yangi bosqichga olib chiqish maqsadida yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Mazkur qonun bilan yoshlarning uzlusiz ta'lim olishini ta'minlash maqsadida kunduzgi ta'lim shakli bilan bir qatorda sirtqi, kechki va masofaviy ta'lim shakllari joriy etildi. Dual ta'lim yo'lga qo'yildi.

To'rtinchidan, yoshlarning bilim olishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. 2021/2022 o'quv yilidan boshlab tijorat banklari tomonidan ta'lim kreditlarini Markaziy bankning asosiy stavkasida ajratishning yangi tizimi yo'lga qo'yildi. Unga ko'ra, ta'lim kreditining asosiy qismi talaba oliy ta'lim tashkilotini tugatgandan so'ng yettinchi oydan boshlab 7 yil davomida qaytarishi belgilandi. Bunda "Ijtimoiy himoya yagona reyestri"ga kirgan oilalar farzandlaridan ta'lim krediti uchun garov va kafilliklar talab etilmasligi alohida belgilandi.

Eng quvonarli yangiliklardan biri, shubhasiz, davlat oliy ta'lim muassasalari bakalavriatining kunduzgi ta'lim shakliga kirish imtihonlarida eng yuqori ball to'plagan 200 nafar yosh uchun davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti granti joriy qilinganidir.

Oldingi yillarda ayrim oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishda eng yuqori ball to'plagan abituriyent to'lov-shartnoma asosida qabul qilinishi holatlari ham kuzatilgan. Bunday adolatsizlik aholining, birinchi navbatda, yoshlarning katta e'tiroziga sabab bo'lgan. Prezident grantining joriy

etilganligi yoshlarga ta'lif olishi uchun keng imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi. Mazkur grant sohiblariga a'lo o'qishi, ma'naviy-ma'rifiy va ilmiy-tadqiqot yo'nalishlarida yutuqlarga erishgani uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasi tayinlanishi ham yoshlarga berilayotgan katta imkoniyatlardan dalolat beradi.

Shu o'rinda xotin-qizlarning ta'lif va kasbiy ko'nikmalar olishi hamda bandligini ta'minlashga har tomonlama ko'maklashish maqsadida Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligining tavsiyanomasiga ega bo'lgan xotin-qizlar uchun davlat granti asosidagi qabul ko'satkichlari ajratilganligi, shuningdek, ehtiyojmand oilalar farzandi bo'lgan xotin-qizlar uchun oliy ta'limga ajratiladigan davlat grantlari soni 2 barobarga oshirish orqali 2000 taga yetkazilgani tahsinga loyiq. Bunday imkoniyatlarning yaratilishi qiz-yoshlarni ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Beshinchidan, xalqaro talablarga javob beradigan kadrlarni tayyorlashga e'tibor qaratilmoqda. Yoshlarimizni nufuzli xorijiy oliy ta'lif muassasalarida ta'lif olish va ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borishini ta'minlash maqsadida "El-yurt umidi" jamg'armasi tuzilib, xorijda bakalavriat, magistratura va doktoranturada o'qish uchun stipendiyalar ajratildi. 2018-2020-yillarda mazkur jamg'arma tomonidan 54 nafari xorija magistraturaga, 42 nafari doktoranturaga, 191 nafari stajirovkaga, 698 nafari esa malaka oshirishga yuborilgan. 2021-yilda jamg'arma tomonidan bakalavriatga 69 ta, magistraturaga 112 ta, doktoranturaga 91 ta o'rinn ajratilgan. Dunyoning eng nufuzli universitet va ilmiy markazlarida ta'lif olgan, innovatsion kompaniyalarida stajirovka o'tagan yetuk bilim va malakaga ega bo'lgan, o'z Vatani ravnaqi yo'lida tinimsiz mehnat qilishga tayyor kadrlarni xorijda tayyorlash albatta mamlakat rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Yanada quvonarligi shundaki yoshlar tadbirkorligini har tomonlama qo'llab quvvatlanib hattoki rag'batlantirilmoqda.

Hozirgi vaqtida yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash uchun qator imkoniyatlar taqdim etilmoqda. Ulardan biri – bu yoshlarning investision tadbirkorlik loyihamalarini moliyalashtirish uchun taqdim etilayotgan imtiyozli kreditlar.

Demak, ushbu kreditlar aynan qaysi loyihamalar uchun va qanday shartlar asosida taqdim etilishini quyida ko'rib chiqamiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 21 apreldagi "Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari faoliyatini tashkil etish hamda yoshlarning tadbirkorlikka oid tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5088 sonli qaroriga muvofiq, yoshlar sanoat va tadbirkorlik

zonalari hamda Yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tashkil etiladi.

Ushbu Sanoat zonalarida «startaplan» tashkil etish, yoshlarga tadbirkorlik faoliyatini boshlashi va yuritishlari, shu jumladan, innovation mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayoniga joriy etish va natijalarini tijoratlashtirish, yirik sanoat korxonalari bilan kooperatsiya aloqalarini o'rnatish uchun barcha sharoitlar ta'minlanadi.

Sizning yoshingiz 18-30 orasida hamda siz o'z loyihangizni Yoshlar sanoat zonasida joylashtirmoqchi bo'lsangiz tadbirkorlik loyihasiga qo'yiladigan talablarni ko'rib chiqamiz:

1. Ushbu yoshlar Sanoat zonalariga, asosan, yosh tadbirkorlarning innovation, import o'rnini bosuvchi va eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishni nazarda tutuvchi hamda patent asosida ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishni ta'minlovchi startap investisiya loyihalari joylashtiriladi.

2. Yaratiladigan yangi ish o'rinalarining kamida 70 foizi yoshlar uchun mo'ljallangan, «Yoshlar daftari»ga kiritilgan yoshlarni ish bilan ta'minlash nazarda tutilgan investisiya loyihalari ustuvorlikka ega bo'ladi.

Bunday loyihalarni moliyalashtirish uchun imtiyozli kreditlar olish mumkin.

Imtiyozli kreditlar qanday maqsadlar uchun ajratiladi?

Imtiyozli kreditlar yosh tadbirkorlarga barcha yo'nalishdagi investision loyihalar uchun ajratiladi:

- meva-sabzavot va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishslash, saqlash va qadoqlash;
- to'qimachilik, poyabzal va charm-galantereya;
- kimyo, farmasevtika;
- oziq-ovqat;
- elektrotexnika sanoati, mashinasozlik, zamonaviy qurilish materiallari;
- hunarmandchilik hamda axborot-kommunikasiya texnologiyalari.

Yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan ajratiladigan ushbu kreditlarning shartlari quyidagicha:

- Miqdori - 100 ming AQSh dollari ekvivalentigacha
- Muddati - 7 yil
- Foiz stavkasi - 14% (milliy valyutadagi kreditlar) va 3% (xorijiy valyutadagi kreditlar) Agar investisiya loyihalari qiymati 100 ming AQSh dollari ekvivalentidan oshsa, oshgan qismi uchun ham kredit olish mumkin.

Bundan tashqari, "Yoshlar daftariga" kiritilgan tadbirkorlarga quyidagi imtiyozlar yaratilgan:

1. Tadbirkorlik uchun zarur asbob-uskunalar va mehnat qurollarini xarid qilish maqsadida bazaviy hisoblash miqdorining 40 baravarigacha (hozirgi kunda 9,8 mln. so‘mgacha) subsidiyalar ajratiladi;

2. Dehqon xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanishda urug‘liklar va ko‘chatlarni xarid qilish uchun bazaviy hisoblash miqdorining 8 baravarigacha (hozirgi kunda 1,96 mln.so‘mgacha) subsidiyalar ajratiladi;

3. Yosh tadbirkorlar bino va inshootlarni ijara olgan bo‘lsalar, bir yillik ijara xarajatlarining 30 foizi – biroq ko‘pi bilan 7,35 mln. so‘mgacha (BHM ning 25 barobari) kompensasiya qilinadi.

O‘z loyihalaringizni amaliyatga tatbiq eting, tadbirkorlik bilan shug‘ullaning hamda ushbu yo‘lda siz uchun yaratilgan imkoniyatlar, imtiyozlardan xabardor bo‘lib, ulardan maksimal ravishda foydalaning so‘nggi yillarda olib borilgan islohotlar samarasi natijasida mamlakatimizda yoshlarni qo‘llab-quvvatlashning kompleks tizimi yaratildi. Bilimli, keng dunyoqarashga ega vatanparvar yigit-qizlarni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri etib belgilandi.

Yana bitta quvvonarli imkoniyatning bombasi desak hato bo‘lmaydi yoshlarning til o‘rganishga ham juda katta imkoniyat yaratildi hattoki kam ta’minlangan oila farzandlariyam unda foydalansa bo‘ladi.

Ibrat Farzandlari til o‘rgatish loyihasi doirasida mobil ilova ishlab chiqildi

Yoshlar ishlari agentligi tomonidan tashkil etilgan Ibrat Farzandlari — xorijiy tillarni bepul o‘rgatishga mo‘ljallangan loyiha doirasida Ibrat Academy ilovasi ishlab chiqildi.

Кирилчада 5 avgust 2023, 19:00 Jamiyat Reklama

Bugungi shiddatli dunyoda turli millat, madaniyat va til egalari bo‘lgan dunyo ahli har qachongidan ham ko‘proq muloqotga ehtiyoj sezmoqda. Texnologiya inqilobi sabab dunyoning istalgan burchagidan turib uning boshqa bir burchagiga soniyalarda axborot uzatish imkon mavjud. Bir necha yuz yillar ilgari bu uzatmani amalga oshirish mumkinligi insoniyat tasavvuriga sig‘mas edi.

Millisekundlar ham muhim ahamiyat kasb etadigan tezkor zamonda, dunyo bilan hamqadam bo‘lishdagi muhim omillardan biri — bu kommunikatsiya va til vositasi sanaladi. Juhon tillarini o‘rganish nafaqat muloqot imkoniyatlarini oshiradi, balki shaxsning mehnat bozoridagi muvaffaqiyatini, kognitiv qobiliyatlarini, tafakkur diapazonini ham kengaytiradi.

Ish beruvchilar nomzod uchun zaruriy ko‘nikmalarni sanab o‘tganda, odatda bir nechta tilni bilish qobiliyatiga alohida urg‘u berishadi. Ko‘pincha bu ko‘nikma nomzodning boshqa qobiliyatları va hatto ish tajribasidanda

og'irroq tosh bosadi. Boshqacha qilib aytganda, dizayner, servis xodimi, sotuvchi yoki kichik biznes egasi bo'ladimi — har qanday sohada ko'p tilni bilish kishining professional maqsadlariga erishishida muhim o'rinni tutadi.

Bundan tashqari, yangi tilni o'rganish, yangi madaniyatni o'rganish ham demakdir. Dunyo tarixi va san'atining aksariyati — kitoblar, filmlar, musiqalar, badiiy asarlardan tortib ilmiy tajribalargacha turli tillarda namoyon bo'ladi. Nemis tilining nafisligiyu, yapon madaniyati intrigasini, arab tilining o'ziga xos ohangiyu, italyan tilining she'riy jozibasini, ingliz tilining bepoyonligiyu, fransuz tilining go'zalligini — faqatgina mana shu tillarni o'rganish orqali to'laqonli his qilish mumkin. Shekspir klassikasini asl ingliz tilida mutolaa qilish, Neruda she'rlarini shoir ona tilisi — ispan tilida o'qish yoki Kurosavaning "Rashomon" asarini haqiqiy yaponcha versiyasida tomosha qilish — barchasi faqat til o'rganish taqdim eta oladigan zavqdir.

Hulosa: Biz hech uyalmasdan barilla ayta olamizki chunki biz yoshlarga tepada yozilgan hattoki undanda ko'proq imkoniyat eshiklari ochin qo'yilganki biz yoshlar uchun bu juda katta baxt hattoki kerak bo'lsa million dollillardan qimmatliroq deya ayta olamiz chunki ta'lim sohasida deymizmi yoki tadbirdorlik deymizmi chetga chiqish uchun til o'rganamiz deymizmi biz O'zbekiston yoshlarida bu imkoniyatlarning barcha barchasi bor. Men kelajakda bo'lajak yurist bo'lishni niyat qilib qo'yganman albatta men orzuyimga erishishim uchun bizning go'zal yurtimizda barcha imkoniyatlarni bor bu imkoniyatlarni yaratib bergan bizni har tamonlama qo'llab quvatlab turgan yurt boshimiz Shavkat Miromonovichga biz yoshlar cheksiz minnadorchilik bildirib qolamiz. Men ham kelajakda o'z yurtim bayroqini ko'klarga ko'tarish uchun unga munosib fardan bo'laman va hozirda biz yoshlarga yaratilgan imkoniyatlarni oqliman.